

## **XAVFSIZ HARAKATNI TASHKIL ETISHDA MEHNAT MUHOFAZASI FANINI O‘QITISHNI O‘RNI**

NamMQI o‘qituvchisi: Yuldoshev Shaxboz Xoshimjon o‘gli

NamMQI o‘qituvchisi: Mo‘minjonov Nozimjon Ne‘madjon o‘g‘l

Namangan Muhandislik Qurilish instituti

**Annotasiya.** Ushbu maqolada zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishda yuqori samarali va xavfsiz texnologiyalarni, mehnatni tashkil qilishning ilg‘or usullarini tadbiiq etish va shu bilan birgalikda ushbu soha uchun yuqori malakali o‘rta bo‘g‘in kadrlari tayyorlashni talab qiladi. Ularning sanoat korxonalarida xavfsiz mehnat qilishlarini ta‘minlash ularga sog‘lom mehnat sharoitlarini yaratish, jarohatlanish va kasb kasalliklarining oldini olish usullarini o‘rgatish orqali amalga oshiriladi .

**Абстрактный.** В данной статье развитие современной науки и техники требует применения высокоэффективных и безопасных технологий, передовых методов организации труда на производстве и одновременно подготовки высококвалифицированных кадров среднего звена для этой области. Обеспечение их безопасной работы на промышленных предприятиях осуществляется путем обучения методам создания здоровых условий труда, профилактики травматизма и профессиональных заболеваний.

**Abstract.** In this article, the development of modern science and technology requires the application of highly effective and safe technologies, advanced methods of labor organization in production, and at the same time the training of highly qualified middle-level personnel for this field. Ensuring their safe work in industrial enterprises is carried out by teaching them methods of creating healthy working conditions, preventing injuries and occupational diseases.

**Kalit soʻzlar:** Ekologik xavf, homo agens, global iqlim o'zgarishi, mehnat xavfsizligining nazariy asoslari, kimyoviy va toksik moddalar, ekologik inqiroz, suvlarini tuzsizlantirish, mahsulotga rang berish, maishiy va qattiq chiqindilar, rekultivatsiya, poligonlar.

**Ключевые слова:** Экологический риск, homo agens, глобальное изменение климата, теоретические основы охраны труда, химические и токсичные вещества, экологический кризис, опреснение воды, окраска продукции, бытовые и твердые отходы, рекультивация, свалки.

**Key words:** Ecological risk, homo agens, global climate change, theoretical bases of labor safety, chemical and toxic substances, environmental crisis, water desalination, product coloring, household and solid waste, reclamation, landfills.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratib berishga qaratilgandir. Albatta, munosib hayot sharoitini yaratish ilmiy-texnik taraqqiyot asosida amalga oshiriladi va bu inson mehnatini yengillashtirish bilan bir qatorda, turli xil xavfli faktorlarni vujudga keltiradiki, natijada har xil koʻrinishdagi baxtsiz hodisalar: jarohatlanishlar, shikastlanishlar va kasb kasalliklari vujudga keladi. Lekin, bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson yaxshi yashashni, yaʼni oʻzining moddiy-maʼnaviy va ijtimoiy ehtiyojlarini toʻliqroq qondirishni istaydi. Aynan shu sababli inson tinimsiz faoliyatda boʻladi. Faoliyat – insonning yashashi uchun zarur boʻlgan asosiy shart-sharoitlardan biridir. Mehnat – faoliyatning oliy shaklidir. Falsafiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, «inson» tushunchasiga eng xos aniqlanish «Homo agens», yaʼni «Harakatdagi inson»dir. Albatta, faoliyat va mehnat shakli turlicha boʻlib, u hayotdagi ishlab chiqarish, madaniyat, jamoat ishlari, ilmiy ishlar va boshqa sohalardagi amaliy, intellektual hamda maʼnaviy jarayonlarni oʻz ichiga oladi.

**Asosiy qism:** «Mehnatni muhofaza qilish» fani insonning ishlab chiqarishdagi faoliyatida sodir bo‘ladigan turli shakldagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalaniish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan nazariy fandır. U keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar asosida rivojlanib, takomillashib boradi [1]. Insonning mehnat xavfsizligini ta‘minlashda ilmiy nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko‘rsatmalar, qoidalar va sanitar texnik me‘yorlar hamda ularni o‘rganish bo‘yicha uzluksiz ta‘lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Mehnatni muhofaza qilish fanining asosiy maqsadi talabalarga insonning ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli faktorlar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo‘llari, mehnat xavfsizligini ta‘minlash hamda xavfsiz va sog‘lom ish sharoitlarini yaratish bo‘yicha nazariy bilim berish va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdan iboratdir [2]. Yuqoridagilarga mos holda talabalar fanni o‘rganish davomida quyidagilarni nazariy jihatdan o‘zlashtirishlari lozim:

- mehnat xavfsizligining nazariy asoslari. Ergonomika va mehnat xavfsizligi psixologiyasi haqida tushuncha;

- mehnat xavfsizligini ta‘minlovchi asosiy tamoyillar, uslublar va vositalar tizimi; – mehnat xavfsizligini boshqarish asoslari;

- mehnat xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qonunlar, standartlar tizimi, nizomlar, ko‘rsatmalar, ishlab chiqarish sanitariyasi me‘yorlari va boshqa me‘yoriy hujjatlar:

- ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta‘minlash, sog‘lom va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo‘yicha rejali tadbirlar mazmuni, uni ishlab chiqish tartibi;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tahlil qilish, ularni tekshirish va hujjatlashtirish tartiblari;

– mehnat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish, baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlash uslublarini o'rganish;

– xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan shaxsiy himoya vositalari bilan ishchi-xizmatchilarni ta'minlash tartibi va ulardan foydalanish yo'llari;

**Ishlab chiqarish binolardagi ish o'rinlarida havoning harorati, nisbiy namligi va harakat tezligining yo'l qo'yiladigan me'yorlari [4]**

Yil fasli	Ish toifalari	Havoning harorati, °C	Nisbiy namligi, %	Harakat tezligi, m/s
Sovuq mavsum	yengil –I	20-23	60-30	0.2
	o'rtacha og'irlikdagi- II <sup>a</sup>	18-20	60-40	0.2
	II <sup>b</sup>	17-16	60-40	0.3
	og'ir –III	16-19	60-40	0.3
Iliq yoki o'tish davri	yengil –I	20-25	60-40	0.2
	o'rtacha og'irlikdagi- II <sup>a</sup>	21-23	60-40	0.3
	II <sup>b</sup>	20-22	60-40	0.4

	og`ir –III	18-21	60-40	0.5
Issiq mavsum	yengil –I	20-30	60-30	0.3
	o`rtacha og`irlikdagi- II <sup>a</sup>	20-30	60-30	0.4-0.5
	II <sup>b</sup>	20-30	60-30	0.5-0.7
	og`ir –III	20-30	60-30	0.5-1.0

### **Xulosa.**

Mehnatni muhofaza qilish – ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan vositalar usullar majmuidir. Demak, insonning mehnat xavfsizligini ta'minlash birinchi navbatda uning mehnat faoliyati jarayonini va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavfli faktorlarni o'rganishni talab etadi. Bunday muammolarni bartaraf etishda, xavfsiz harakatni tashkil etishda mehnat muhofazasi fanining o'rni kata ahamiyat kasb etmoqda.

### **Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati**

1. Mominjonov, N. N. (2023). atmosfera havosini ifloslanishi natijasida insonlarga bo'layotgan ta'siri. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 226-230.

2. Nozimjon, M., & Abdurakhim, K. (2023). to the question of analysis of industrial and environmental safety management systems. *Universum: технические науки*, (2-5 (107)), 20-23.

3. Nemadjon, M. N. (2023). Analysis of industrial and environmental safety management systems. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(10), 149-155.